



# MAKTABGACHA TA'LIM TASHKIOTLARI PORLOQ KELAJAKNING ASOSIY POYDEVORI SIFATIDA

*Ko'chkinova Mahliyo Norbutayevna*

*Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti*

*"Pedagogika va psixologiya" kafedrasi o'qituvchisi*

*Elektron pochta manzili: [mkuchkinova@dtpi.uz](mailto:mkuchkinova@dtpi.uz)*

*Tel: (99) 711-17-68*

*Hamzayeva Gavharshod Anvarovna*

*Aminjonova Aziza Telmon Qizi*

*Abduraxmonova Maxliyo Shavkat Qizi*

*"Maktabgacha ta'lism yo'nalishi talabalari*

*Elektron pochta manzili: [hamzayeva@mail.com](mailto:hamzayeva@mail.com)*

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada maktabgacha ta'limganing bolaning intellektual, axloqiy va jismoniy kamolotidagi o'rni va ahamiyati tahlil qilinadi. Maktabgacha ta'limganing zamonaviy yondashuvlari, innovatsion metodlari va tarbiya jarayonida ta'sirchan vosita sifatida ishlatalishi yoritiladi. Shuningdek, bola shaxsining shakllanishida maktabgacha ta'lism muassasalari hamda ota-onalar hamkorligining ahamiyati haqida fikr yuritiladi.

**Kalit so'zlar:** Maktabgacha ta'lism, bola kamoloti, ta'lism, tarbiya, innovatsion metodlar, hamkorlik, jamiyat, taraqqiyot.

## KIRISH

Mamlakatimizda ta'lism tizimiga davlat siyosati darajasiga juda katta e'tibor qaratilmoqda. Mustaqillik sharofati tufayli barcha sohalarda bo'lgani kabi maktabgacha ta'lism soxasida ham katta o'zgarishlar sodir bo'ldi. Har qanday mamlakatning kuchi uning intellektual salohiyati bilan belgilanadi. Salohiyatga turli yo'llar bilan erishish mumkin. Barkamol shaxs tarbiyasini tashkil etish barcha davrlarda ham ijtimoiy jamiyatning muhim talabi va asosiy maqsadi bo'lib kelgan.



Tabiiyki, hozirgi ta’lim islohotlari sharoitida ham barkamol shaxs tarbiyasi muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Mashhur rus pedagogi Lesgaftning fikricha, insonning maktabgacha ta’lim va tarbiya yoshidagi davr shunday bir bosqichki, bu davrda bolalarda xarakter xislatlarining namunalari shakllanib, axloqiy xarakterning asoslari yuzaga keladi. Bog‘cha yoshdagi bolalarning ko‘zga tashlanib turuvchi xususiyatlaridan biri, ularning harakatchanligi va taqlidchanligidir. Bola tabiatining asosiy qonunini shunday ifodalash mumkin: bola uzliksiz faoliyat ko‘rsatishni talab qiladi, lekin u faoliyat natijasidan emas, balki faoliyatning bir xilligi va surunkaliligidan toliqadi. Kattalar va tengdoshlari bilan bo‘lgan munosabat orqali bola axloq me’yorlari, kishilarni anglashi, shuningdek, ijobiy va salbiy munosabatlar bilan tanisha boshlaydi.

## ASOSIY QISM

Barkamol avlodni tarbiyalash hamisha insoniyatning eng ezgu va eng ulug’ orzularidan biri hisoblanib kelinadi. Agar tarix sahifalariga nazar tashlaydigan bo’lsak, Al-Farobiyning “Fozil odamlar shaxri” asarida jamiyatdagi har bir bilimli inson fozil odamdir. Bunday inson o’zi yashayotgan davlatdagi barcha qonun va qoidalarga e’tiborli va unga amal qiluvchi, o’z kasbining ustasi bo’ladi deb ta’kidlangan.

Kelajagi buyuk davlatimizning poydevori mustahkamligini ta’minalash maqsadida respublikamiz rahbariyati tomonidan sog‘lom avlodni tarbiyalash, ma’naviy-ma’rifiy ishlarni yuksak darajaga ko‘tarish orqali barkamol insonlarni voyaga yetkazishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Zотан, kelajagi buyuk davlatni bunyodga keltirish uchun har qanday davlatning fuqarosi dastlab oilada va so‘ngra maktabgacha ta’lim tashkilotlarida mukammal tarbiyalanishi, shaxs sifatida to‘laqonli shakllanish imkoniyatlariga ega bo‘lishi lozim bo‘ladi. O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 maydagги PQ-4312-son Qarori asosidagi O’zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish Konsepsiysi, 2020-yil 20-sentabrda qabul qilingan “Ta’lim to’g’risida”gi qonunning hayotga tadbiq etilishi, mamlakatimizda yangi o’quv tizimining



vujudaga kelishiga hamda zamonaviy bilimga ega bo'lgan yosh mutaxassislarni tayyorlashga zamin yaratdi.

O'zbekiston xalqi o'z oldiga huquqiy demokratik jamiyat qurish maqsadini qo'ygan. Bu yo'lida bиринчи, lekin juda muhim qадамлар qо'yilgани, xalqaro jamiyatda o'z o'rнимизни mustahkamlashga olib keladi. Negaki dunyoning bugungi rivoji shunday bir mavqedaki, hal qiluvchi omil harbiy qudratda emas, balki intellektual salohiyatda, fikrda, aqlda, ilg'or texnologiyalardadir.

Jamiyatni ma'naviy yangilashdan ko'zlangan bosh maqsad – yurt tinchligi, xalq erkinligi va farovonligiga erishish, komil insonni tarbiyalash, ijtimoiy hamkorlik va millatlararo totuvlik, diniy bag'rikenglik kabi ko'pdan-ko'p muhim masalalardan iborat.

Pedagogning bolaga o'z shaxsiyati bilan ta'sir ko'rsatishi to'g'risidagi g'oyani o'z davrida maktabgacha ijtimoiy tarbiya tizimining yaratuvchilaridan biri G.A.Arkin rivojlantirgan edi. Uning pedagogik asarlarida quyidagi: "Biz uchun tarbiyachining o'ziga xos gapirish intonatsiyasidan boshlab imo-ishoralari, tabassumi harakatlaridagi bo'lgan barcha xususiyatlarini ko'rish va payqay bilish g'oyat muhimdir".

Bola qalbiga chuqur kira oladiga va u yerda individual yashirin qadriyatlarni topa biladigan, ularni ro'yobga chiqarishga amaliyotda qo'llanish mustahkamlanishi hamda takomillashuviga sabab bo'la oladigan har qanday rivojlanish faktori tarbiyachi ko'rsatadigan ta'sir oldida ojizdir degan fikrlarni ta'kidlangan. Bola shaxsi rivojida tarbiyachining roli o'z navbatida tarbiyachining yetakchilik rolini yuzaga keltiradi. Bu har bir bola shaxsini shakllantirishda uning yelkasidagi mas'uliyatdir.<sup>1</sup> Tarbiyachi o'z shaxsiyatida bolalar qanday muayyanlikni ko'rishmoqda, uni o'zlaricha kim sifatida qabul qilishmoqda, uning shaxsiyatidagi qaysi shaxsi xususiyatlarini o'zlari uchun mo'ljal qilib olishmoqda, bularning barini bilmog'i lozim.

<sup>1</sup> Achilov, O. M., Kochkinova, M. N., & Kamolova, O. M. Q. (2021). THE IMPORTANCE OF ECONOMIC EDUCATION IN PRESCHOOL CHILDREN. CURRENT RESEARCH JOURNAL OF PEDAGOGICS, 2(06), 137-140.



Boshqacha aytganda tarbiyachining “men”i qanday qilib bolalar mulkiga aylanmoqda, bolalarning o’zlariga xos bo’lgan xususiyatlariga nisbatan qay ravishda taqlid etilayotganligi hamda tarbiyalanuvchilar uchun qanday ahamiyat kasb etmoqdaligini tushunib yetmog’i zarur.

Atoqli rus pedagogi A.S.Makarenkoning “Agar bola yomon tarbiyalangan bo’lsa, buning uchun mutlaqo tarbiyachi aybdordir. Agar bola yaxshi bo’lsa bunday holda ham u o’z bolaligi uchun, tarbiyachisi oldida qarzdordir”, -degan fikri hozir ham ahamiyatini yo’qotgan emas.

Bo’lajak tarbiyachilarning axloqiy sifatlari qanday bo’lishi ko’p jihatdan oliy o’quv yurti hamda pedagogik bilim yurti o’qituvchisining ijodiy tashabuskorligi va bilimi, istak va mahorati hozirgi zamon talabi darajasida bo’lishiga bog’liq.

Maktabgacha yoshdagi bolalarning mavjud muammolarini yechish uchun ularni

maktabgacha tarbiya tizimiga to’la qamrab olish imkoniyati, uning ommaviylicha ham barkamol avlodni shakllantirishning muhim omili sifatida ta’lim-tarbiya samaradorligining yuqori darajasiga erishish uchun tarbiyachi pedagoglarning kasbiy tayyorgarligini shakllantirish ishlarni maqsadli ravishda amalga oshirishni talab etadi. Maktabgacha yoshdagi bolalarga ta’lim-tarbiya berishda ta’lim muasasasida tashkil etilgan o’quv mashg’ulotlar tartibining tahlil qilinishi bolalarda kommunikativ qobiliyatlarni shakllantirishning pedagogik-psixologik xususiyatlarini e’tiborga olishni ta’minlaydi. Shuningdek, bolani madaniyatli, aqli, ma’naviyatli bo’lishini tashxis qilish, istiqbolini belgilash hamda shaxs xususiyatlarini rivojlantirishning samarali shakllari, pedagogik-psixologik va ijtimoiy omillarini o’rganish asosida amaliy tavsiyalar ishlab chiqish, kelajak avlodni boy ma’naviy hamda ilmiy va umuminsoniy qadriyatlar asosida kamol toptirishning ta’sirchan tizimini yaratish, ilg‘or pedagogik-psixologik tajribalarni, etnopsixologik va etnopedagogik usul va vositalarini, shaxs kamolotiga qaratilgan asosiy omillarni



o‘rganishda tarbiyachilarning kasbiy mahorati va uning odob axloq me’yorlariga rioya etgan holda faoliyat olib borishi muvaffaqiyatga olib boruvchi yo’ldir.<sup>2</sup>

## XULOSA

Bolani tarbiyalash nihoyatda qiyin va murakkab jarayon bo‘lib, juda qadimdan ushbu faoliyatga jamiyatning yetuk kishilari jalb etilgandir. Xususan, qadimgi Gretsiya va Rim tarixidan yaxshi bilamizki, miloddan avvalgi davrlarda ham yosh avlod tarbiyasi o‘zining ma’naviy qiyofasi va aqliy qobiliyati bilan jamiyat a’zolari o‘rtasida yuksak hurmat ehtiromga sazovor bo‘lgan kishilar, ya’ni donishmandlar zimmasiga ishonib topshirilgandir. Ushbu holat yosh avlod tarbiyasi uning tashkil etilishi mazmunini faqat shaxs kamolotini emas, balki jamiyat taraqqiyotini ta’minlashda muhim ahamiyatga ega ekanligini anglatadi.

### Foydalilanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Maktabgacha ta’lim muassasasining faoliyatini takomillashtirish to‘g‘risida ”gi PQ528-sonli qarori.
2. Z.T.Nishanova,G.Kalimova,A.G‘.Turg‘unboyeva,M.X.Asranboyeva “Bolalar psixologiyasi va psixodiagnostikasi” Toshkent 2017-yil 80-82 bet
3. Jalilova S.X. “Maktabgacha yoshdagi bolalar psixologiyasi” «Faylasuflar» nashriyoti Toshkent – 2017 138-167 bet
4. Qodirova.F, Toshpolatovna. Sh, Kayumova. N, A’zamova. M – “Maktabgacha pedagogika” Toshkent- 2019
5. A  
tayeva. N, Salayeva.M, Hasanov. S – “Umumiyl Pedagogika”- Toshkent -2013
6. K  
o‘chkinova M. N., qizi Rahmonova D. I., qizi Rahmonova M. S. BO ‘LAJAK O‘QITUVCHI KASBIY TAYYORGARLIGIGA DOIR ETIKET QOIDALARINI TARKIB TOPTIRISHDA MULOQOTNING O ‘RNI //Educational Research in Universal Sciences. – 2023. – T. 2. – №. 14. – C. 778-783

<sup>2</sup> (Atamurodova Q. G. et al. Factors and means of individual spiritual development //ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal. – 2021. – T. 11. – №. 6. – C. 771-774.)



7. tamurodova Q. G. Factors and means of individual spiritual development //ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal. – 2021. – T. 11. – №. 6. – C. 771-774
8. Achilov, O. M., Kochkinova, M. N., & Kamolova, O. M. Q. (2021). THE IMPORTANCE OF ECONOMIC EDUCATION IN PRESCHOOL CHILDREN. CURRENT RESEARCH JOURNAL OF PEDAGOGICS, 2(06), 137-140
9. Achilov O. M., Kochkinova M. N., Kamolova O. M. Q. THE IMPORTANCE OF ECONOMIC EDUCATION IN PRESCHOOL CHILDREN //CURRENT RESEARCH JOURNAL OF PEDAGOGICS. – 2021. – T. 2. – №. 06. – C. 137-140
10. Ismatov S. et al. O'QUVCHI YOSHLAR TARBIYASIDA DINIY EKSTRIMIZM VA TERRORIZM TAHDIDI VA ULARNI BARTARAF ETISHNING MAVJUD SHAROITLARI //PEDAGOG. – 2023. – T. 6. – №. 2. – C. 443-447
11. Ismatov S. et al. O'QUVCHI YOSHLAR TARBIYASIDA DINIY EKSTRIMIZM VA TERRORIZM TAHDIDI VA ULARNI BARTARAF ETISHNING MAVJUD SHAROITLARI //PEDAGOG. – 2023. – T. 6. – №. 2. – C. 443-447
12. Ko'chkinova M. KASBIY ETIKET QOIDALARINING TAKOMILLASHUVIDA PEDAGOGIK MAHORAT VA O 'QITUVCHI KOMPETENSIYALARINING AHAMIYATI //" Science Shine" International scientific journal. – 2024. – T. 16. – №. 1
13. Ko'charova D., Ko'chkinova M. XURSHID DO 'STMUHAMMAD NASRIDA DIDAKTIK TAMOYILLAR //Journal of Integrated Education and Research. – 2022. – T. 1. – №. 4. – C. 703-707
14. Ko'charova D., Ko'chkinova M. ABDULLA QODIRIYNING OBRAZ YARATISH MAHORATI //Journal of Integrated Education and Research. – 2022. – T. 1. – №. 4. – C. 714-716
15. Ko'chkinova Makhliyo Norbutayevna, & Ravshanov Muhammad G'afur o'g'li. (2021). THE ROLE OF INCLUSIVE EDUCATION IN THE LIVES OF



CHILDREN WITH DISABILITIES. European Scholar Journal, 2(6), 193-194.

Retrieved from <https://scholarzest.com/index.php/esj/article>.

16. F.Qodirova, Sh.Toshpo'latova, M.A'zamova "Maktabgacha pedagogika - T.: Ma'naviyat 2019 y.
17. Kayumova N. "Maktabgacha pedagogika". TDPU nashriyoti T.: 2013 y. 14b
18. Qayumova N.M. "Maktabgacha pedagogika" TDPU nashriyoti -T.: 2017 y.